

“MUVAFFAQIYAT” SEMANTIK MAYDONIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QIYOSIY TAHLILI VA O‘QITISH MUAMMOLARI.

Xamrayeva Adolatxon Qarshi xalqaro universiteti

“Filologiya va tillarni o‘qitish”

kafedrası o‘qituvchisi.

adolatkhamrayeva@gmail.com

ORCID: 0009-0002-6968-5039

Annotatsiya

Maqola ingliz va uzbek tillarida uchraydigan “muvaffaqiyat” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklarni madaniy, lingvistik va pedagogik nuqtayi nazaridan qiyoslaydi. Ushbu taqdiqot materiallari va idioma lug‘atlari asosida tillardagi muvaffaqiyatni ifodalashga ta’sir qiluvchi metaforalarni ahamiyatini yoritadi. Ingliz tilida ushbu birliklar inson rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shsa, o‘zbek tilida esa omad, qadr-qimmat va ijtimoiy hurmat tushunchalariga urg‘u beradi. Ilmiy maqola madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladigan tarjima muammolari ko‘rib chiqib, madaniy va funksiyaviy moslashtirish, parafaza kabi strategiyalarni tavsiya etadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarga xorijiy tillarni samarali va mazmunli o‘zlashtirishiga va ushbu tilda ravon so‘zlashishga yordam beradi. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, muvaffaqiyotni ifodalovchi frazeologik birliklar o‘quvchilarning millatlararo kompetensiyasi va tarjimaning aniqligini oshirishga yordam beradi.

Abstract

The article sheds light on success-related idioms in English and Uzbek from cultural, linguistic, and teaching perspectives. The study shows the importance of metaphors that influence how success is perceived in each language by using idiom dictionaries and corpora. English idioms primarily focus on human effort and progress, meanwhile idioms in Uzbek mainly emphasize dignity, luck, and social respect. The

article focuses on translation issues by cultural differences and offers strategies such as cultural alternatives, functional similarities, and paraphrasing. Furthermore, it maintains that teaching expressions in a cross-cultural context assists learners to acquire language in a more effective and in a meaningful context. The article concludes that knowing and utilizing success-related idioms help language learners improve intercultural competence and translation accuracy.

Аннотация

В данной статье рассматриваются фразеологизмы, связанные с понятием успеха, в английском и узбекском языках с культурной, лингвистической и педагогической точек зрения. На основе материалов словарей идиом и языковых корпусов выявляется роль метафор, определяющих способы выражения успеха в каждом языке. Английские идиомы в основном подчеркивают человеческие усилия и прогресс, тогда как узбекские фразеологические единицы акцентируют достоинство, удачу и социальное признание. В статье также поднимаются проблемы перевода, обусловленные культурными различиями, и предлагаются такие стратегии, как культурная замена, функциональная эквивалентность и парафраз. Кроме того, утверждается, что обучение идиомам в межкультурном контексте помогает учащимся более эффективно и осмысленно овладевать языком. В заключение подчеркивается, что знание и использование идиом, связанных с успехом, способствует повышению межкультурной компетентности и точности перевода.

Kalit soʻzlar: muvaffaqiyat, semantik maydon, frazeologik birliklar, frazeologizm, ingliz tili, oʻzbek tili, qiyosiy tahlil, lingvomadaniy xususiyatlar, tarjima muammolari, frazeologik tarjima, chet tillarni oʻqitish, frazeologiyani oʻqitish, kommunikativ kompetensiya, til va madaniyat

Keywords: success, semantic field, phraseological units, phraseologism, English language, Uzbek language, comparative analysis, linguocultural features, translation problems, phraseological translation, foreign language teaching, teaching phraseology, communicative competence, language and culture

Ключевые слова: успех, семантическое поле, фразеологические единицы, фразеологизм, английский язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, лингвокультурные особенности, проблемы перевода, фразеологический перевод, обучение иностранным языкам, обучение фразеологии, коммуникативная компетенция, язык и культура

Kirish

Frazeologik birliklar tilning eng murakkab qismi bo‘lishiga qaramasdan eng mazmunli qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular xalqning dunyoqarashi, qadryatlari va tarixiy tajribasini o‘zida aks etgan. Fernando (1996), Fraser (1970) ta’kidlaganidek, muvaffaqiyatni ifodalovchi idiomalar jamiyatning yutug‘lari va orzulari haqidagi qarashlarini ifoda etgani sababli alohida qiymatga egadir. O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish ularning semantik tuzilishi, madaniy asoslari va tarjima strategiyalarini aniqlash uchun imkon beradi. Ingliz tilida “climb the ladder”, “break new ground”, “make the cut”, “level up” kabi muvaffaqiyatni ifodalovchi faol harakat, raqobat va shaxsiy mehnat orqali qo‘lga kiritish mumkinligini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “omadi kulib boqdi”, “yulduzi porladi”, “keng yo‘l ochildi” kabi iboralar jamiyatning e’tibori, omad va axloqiy yuksakligiga urg‘u beradi. Tadqiqot ushbu ikki tillardagi muvaffaqiyat idiomalarining semantik, metaforik va madaniy jihatlarini qiyoslab, ularni tarjima qilish va o‘qitishdagi asosiy tamoyillarini aniqlashni maqsad qiladi.

Asosiy qism

Ingliz tilida “muvaqqiyat” semantik maydoniga mansub frazeologizmlar ko‘pincha harakat, natija va shaxsiy yutuq bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *to achieve success, to reach the top, to make a name for oneself* kabi birikmalar muvaqqiyatga erishish jarayonini ifodalaydi.

O‘zbek tilida esa muvaqqiyatni ifodalovchi frazeologik birliklar ko‘proq hayotiy tajriba va xalqona tasavvurlarga tayanadi: *maqsadiga yetmoq, yulduzi porlamoq, ishini o‘ngidan kelmoq*. Bu birliklar milliy tafakkur va qadriyatlarning aksidir.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi frazeologizmlar ko‘proq individuallik va raqobatni ifodalasa, o‘zbek tilida jamoaviylik va taqdir tushunchalari ustuvorlik qiladi. Bu holat tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki frazeologik birliklar har doim ham so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi.

Metodlar

Ingliz tilida qo‘llaniladigan frazeologik birliklar, idiomalar to‘g‘ridan- to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima qilib bo‘lmaydi, ularning ma‘nosini chuqur tushunish va anglash uchun ular semantik, metaforik va madaniy jihatlari qiyoslanib, o‘zbek tilidagi ekvivalentlari keltiriladi.

Ushbu maqola ikki asosiy yondashuv asosida yoritiladi.

Kövecses (2010), Lakoff va Johnson (2003) kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra ingliz va o‘zbek tillarida muvaqqiyatni ifodalovchi birikmalar tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda idiomalarning, sayohat, yorug‘lik, izzat hamda omad kabi asosiy metaforalar aniqlab chiqildi.

Keyingi bosqichda esa Fernando (1996) ning idiomalar tasnifi ya‘ni sof, yarim, literal frazalar qo‘llab ingliz va o‘zbek idiomalari semantik va tuzilish jihatdan solishtirilgan. Bu jarayonda idiomalar qanday tuzilganligi, ularning ma‘nosi qanday farqlanishi va qaysi turga kirishi aniqlab borilgan.

Ushbu maqola esa o'zbek va ingliz tilidagi "muvaffaqiyat" ni ifodalovchi idiomalarning semantik, metaforik va madaniy jihatlarini qiyosiy tahlil qilib, ularni tarjima qilish va o'qitishdagi asosiy tamoyillarni aniqlashni maqsad qiladi.

Ingliz tili jamiyatida "muvaffaqiyat" ya'ni "shaxsiy mehnat, raqobat, o'z ustida" ishlash bilan bog'liqligini ko'rsatadi. "Break new ground"- yangi bosqichdan boshlamoq, "make the cut" - talab darajasiga yetmoq, kabi frazeologik birliklar misol bo'ladi.

The company's new phone discovery could break new ground with its invisible camera.

"Kompaniyaning so'nggi telefon ixtirosi ko'rinmas kamerasi bilan yangi bosqichni boshladi".

Ushbu gapda "break new ground"- "yangi bosqichni boshlagan" degan ma'noda qo'llanilyapti.

O'zbek tilida esa "muvaffaqiyat" ko'pincha "omad, yorug'lik, hurmat" va izzat hamda "yo'l ochilishi" kabi metaforalar bilan ifodalab ko'rsatiladi.

Jumladan, yulduzi porladi- omadi yurishdi, boshi baland bo'ldi- hurmat topdi, keng yo'l ochildi- imkoniyat yaratildi kabi iboralar yorqin misol bo'la oladi.

Bu idiomalar o'zbek madaniyatida "muvaffaqiyat"ning ko'proq ijtimoiy e'tibori, jamiyat roziligi, omad va faxrlanish bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Tarjima muammolari va yechimlar

Idiomalarning tarjimasi ko'pincha madaniy nomuvfiqlik, metaforaning mos kelmasligi yoki koonntativ farqlar tufayli qiyinlashadi. Bir nechta asosiy muammolar ko'rib chiqiladi:

1. Madaniy ekvivalent yo‘qligi- “yulduzi porladi” ning ingliz tilida to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Bunday vaziyatlarda:

a) ma’no ta’sirini saqlab tarjima qilish kerak. Masalan, “he rose to fame”.

b) madaniy moslashtirish (adaptation) ma’nosi o‘xshash ingliz madaniyatidagi variantni tanlash, masalan, “he got his moment to shine”;

c) parafraza – idiomaning umumiy ma’nosini oddiyroq so‘zlar bilan berish “he achieved great success”.

2. Metafora mos kelmasligi- “climb the ladder” o‘zbekchada metafora ko‘p qo‘llanilmaydi.

a) Metaforani oddiy ma’no bilan berish (demetaphorization).

“Climb the ladder-martabada ko‘tarilmoq”.

b) O‘zbek tiliga mos metafora bilan almashtirish agarda mos keladigan obraz bo‘lsa - “bosqichma- bosqich yuqoriga ko‘tarilish”

c) neytrallashtirish orqali (metaforasiz tarjima) - “he got promoted”.

3. Semantik noaniqlik- idioma ma’noda emas obrazda bo‘ladi.

a) kontekstual parafraza ya’ni idiomaning ma’nosini kontekstga qarab aniqlash, masalan, “break new ground- yangilik yaratmoq”.

b) konnatatsiyani saqlash orqali tarjima qilish, ya’ni idiomning hi-tuyg‘usini yo‘qotib qo‘ymaslik - “he finally made the cut”- u nihoyat tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tdi”.

Pedagogik ahamiyati

Idiomalarning samarali o'qitilishi o'quvchilarga tilning madaniy qatlamini anglashga yordam beradi. Ya'ni ular kontekst ichida qiyoslashlash va visual metaforalar yordamida tilni mukammal o'rganishlari mumkin.

Quyida o'qitish uchun bir nechta samarali tavsiyalar berilgan:

1. Idiomalarni rasmlar, vaziyat yoki hikoya bilan tushuntirish
2. Ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarni o'xshash va farqli tomonlarini solishtirish;
3. Real hayotdan misollar keltirish orqali;
4. Talabalarni o'z madaniyatigi "muvaqqiyat"ni ifodalovchi iboralarni ta'riflashni s o'rash.

Xulosa

"Muvaqqiyat"ni ifodalovchi frazeologik birliklar har ikki tilda gaplashuvchilarning dunyoqarashi, qadryatlari va ijtimoiy yondashuvini kasb etadi. Ingliz tilida "muvaqqiyat" asosan "harakat", "o'z ustida ishlash" va "raqobat" orqali ifodalansa, o'zbek tilida esa "omad", "e'tibor" va "faxrlanish" bilan aks etadi. Tarjima jarayonida madaniy nomuvofiqlik muhim omil bo'lib, ekvivalent, funksional moslik va parafraza moslik va parafraza kabi strategiyalar samarali hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga idiomalarni kontekst va qiyosiy tahlil orqali o'qitish, til o'rganuvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasi va til ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford University Press.

Fraser, B. (1970). Idioms within a transformational grammar.

Foundation of Language, 6(1), pp.22-42

Kövecses, Z. (2010) *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.).

Oxford University Press.

Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors We Live By*.

University of Chicago Press.